



**O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH
UCHUN AJRATILAYOTGAN MABLAG'LAR TAHLILI**

Narzullayeva Umidaxon Nodir qizi

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi

Byudjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti

Ijtimoiy sohani moliyalashtirishni tahlil qilish va

takomillashtirish loyihasi bosh mutaxassisi

E-mail: umidahonnarzullaeva@gmail.com

Annotatsiya. Muvaffaqiyatli ayol tadbirkorlar ish o'rinlari yaratishi, soliq to'lashi, innovatsiyalarni joriy etishi va barqaror iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tadbirkorlarning yangi g'oyalari raqobat mavjud firmalarni yanada raqobatbardosh bo'lishga undaydi. O'zbekiston hukumati va turli tashkilotlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar va ishlab chiqilgan strategiyalar mavjud. Bundan tashqari, ayollar boshqaruvidagi tadbirkorlik korxonalari o'z jamoalariga ko'proq sarmoya kiritib, ijtimoiy farovonlik va barqarorlikka hissa qo'shadilar.

Kalit so'zlar: ayollar, tadbirkorlik, mablag'lar, siyosat, imtiyoz, manfaat.

Kirish. O'zbekiston ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun bir nechta tashabbuslarni jumladan, iqtisodiy mustaqillikni oshirish, gender tenglikni ta'minlash, ayollarni tadbirkorlik faoliyatida faol ishtirok etishini ta'minlash kabi islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatdir. O'zbekiston hukumati va turli tashkilotlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar va ishlab chiqilgan strategiyalar mavjud. Bundan tashqari, ayollar boshqaruvidagi tadbirkorlik korxonalari o'z jamoalariga ko'proq sarmoya kiritib, ijtimoiy farovonlik va barqarorlikka hissa qo'shadilar. Jahon Iqtisodiy Forumi hisobotiga ko'ra, ayollar o'z daromadlarining 90 foizini o'z oilalari va jamoalariga qayta sarmoya kiritadilar, erkaklarda esa bu ko'rsatkich 30-40 foizni tashkil qiladi. Ushbu qayta investitsiyalar ta'lim, sog'liqni saqlash va umumiy hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi va ijobiy o'zgarishlarning to'liq ta'sirini yaratadi⁴⁴. O'zbekiston ketma-ket to'rtinchi yil Markaziy Osiyoda YeTTB mablag'larini oluvchi yetakchi davlat hisoblanadi. Bugungi kunga qadar Bank butun mamlakat bo'ylab 147 ta loyihaga 4,36 milliard yevroga yaqin sarmoya kiritdi, bu mablag'larning katta qismi asosan ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan⁴⁵.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning rahbar lavozimlardagi ulushi 35 foizga yetgan. 2022-2023 yillarda 398 ming nafar xotin-qizning bandligi ta'minlangan, 100 ming nafari

⁴⁴ <https://www.winssolutions.org/10-effective-strategies-to-empower-women-entrepreneurs-now/>

⁴⁵ <https://www.ebrd.com/news/2024/ebrd-supports-womens-entrepreneurship-in-uzbekistan.html>



imtiyozli asosda oliygohlarga qabul qilingan, 170 ming nafariga tahsil olayotgan oliygohlarining shartnoma to'lovlari uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratilgan, 14 ming nafari magistraturada bepul o'qitilmoqda, 198 ming nafari kasbga o'qitilgan. Ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 2023 yilning o'tgan davrida 225 mingdan ziyod loyihalarga 4,4 trillion so'mga yaqin kredit, 40 mingga yaqin xotin-qizlarga jami 179,1 milliard so'm subsidiya ajratilgan⁴⁶. Yurtimizdagi xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish maqsadida:

2022 yilda ipoteka kreditlari bo'yicha ajratiladigan subsidiyalarning kamida 40 foizi xotin-qizlarga yo'naltirildi. Uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan, shu jumladan, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar"ga kiritilgan, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlar ijara huquqi asosida ijtimoiy uy-joylarga joylashtirildi. Uy-joyga muhtoj xususiy uy-joy fondida ijara huquqi asosida istiqomat qilayotgan "Ayollar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi "Ayollar daftari" jamg'armasi hamda respublika byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablag'lari hisobidan qoplab berildi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yangi boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga ajratilayotgan subsidiya miqdori 7 million so'mdan 10 million so'mga oshirildi. Xotin-qizlarga o'z tomorqasida gul va meva-sabzavot yetishtirish uchun issiqxona qurish, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilikni yo'lga qo'yish uchun 35 million so'mgacha imtiyozli kreditlar ajratilishi ko'zda tutilgan.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari Davlat byudjetidan qoplab beriladi. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturlari bo'yicha – 50 nafar, magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha – 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi"⁴⁷ jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar hamda davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi. Shuningdek, mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlarni har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq, to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi. Quyida bunday mablag'lar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshirilgan asosiy chora-tadbirlar haqida tahlil qilinadi.

⁴⁶ https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-ozbekiston-xotin-qizlari-uchun-qanday-imkoniyat-va-imtiyozlar-taqdim-etiladi_552726

⁴⁷ <https://gov.uz/uz/advice/65/document/2302>





Prezident tomonidan 07.03.2024 yildagi PQ-122-sonli “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori imzolandi⁴⁸. Xotin-qizlarni kasbga o‘qitish va bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yil muddatga yillik 14% stavkada jami 100 mln AQSh dollari ekvivalentida kredit resurslari ajratiladi, bunda: "Xalq banki"ga 35 mln AQSh dollari, "Biznesni rivojlantirish banki"ga 35 mln AQSh dollari, "Mikrokreditbank"ga 30 mln AQSh dollari ajratiladi. Savdo-sanoat palatasi va uchta bankda quyidagilarni nazarda tutuvchi xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratiladi:

- tashabbuskor xotin-qizlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko‘maklashish;
- mahallalarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish;
- xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni sotish;
- kooperatsiya asosida loyihalarni amalga oshirishga ko‘maklashish;

loyihalar amalga oshirilishini kuzatib borish va ayol tadbirkorlar bilan doimiy muloqot qilish. Shuningdek, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash Dasturi ishlab chiqiladi.

Kredit ajratishda ustuvorlik "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimiga, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar"ga kiritilgan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirish taklif etilayotgan loyihalarga beriladi⁴⁹.

Ayollar tadbirkorligi uchun 1 trillion 230 milliard so‘m miqdorida kreditlar ajratilgan. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar doirasida, ularga kichik biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan 74 ming 420 nafar xotin-qizga 1 trillion 230 milliard so‘m kreditlar ajratilgan⁵⁰.

O‘zbekiston ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun bir qator milliy dasturlarni amalga oshirgan. Masalan: "Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi": Bu dastur ayollarni o‘z bizneslarini boshlashga, tadbirkorlikni rivojlantirishga rag‘batlantirish uchun banklar orqali maxsus kreditlar va subsidiyalar taqdim etadi. Dasturda ayollarga yangi ish o‘rinlarini yaratish, shuningdek, biznesni boshlash uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich kapitalni olish imkoniyati yaratilgan.

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag‘larning bir qismi banklar orqali kredit shaklida taqdim etiladi. Ba’zi banklar va moliya muassasalari ayollar uchun quyidagi moliyaviy xizmatlarni taklif qilishadi:

Past foizli kreditlar: Ayollarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun imtiyozli kreditlar taklif qilinadi. Bu kreditlar kamroq garov talab qiladi va foiz stavkasi odatda past bo‘ladi.

⁴⁸ https://static.norma.uz/doc/doc_11/122.pdf

⁴⁹ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/hotin-qizlarning_tadbirkorligi_uchun_-100_mln_aqsh_dollari_miqdorda_imtiezli_kredit

⁵⁰ <https://uz24.uz/uz/articles/ayollar-7-4>



Garantiyalar va subsidiyalar: Davlat ayollar uchun biznes boshlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kamaytirish uchun turli grantlar va subsidiyalar ajratadi. Bular ayollarning biznesi boshlanishining dastlabki bosqichlarida qo'llab-quvvatlash bo'ladi.

Ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun nafaqat moliyaviy yordam, balki ta'lim va malaka oshirish dasturlari ham mavjud. Tadbirlar orqali ayollar biznesni yuritish va moliyaviy boshqaruvni marketing, menejment, huquqiy va soliq masalalari bo'yicha bilimga ega bo'ladilar. Ayollarni tadbirkorlikda qo'llab-quvvatlashda turli notijorat tashkilotlar va xalqaro donorlar ham katta rol o'ynaydi. Masalan, BMTning Ayollar dasturi (UN Women)⁵¹ va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun grantlar va ko'maklar taqdim etadilar. Ularning ko'magi bilan ayollarga biznesni boshlashda yordam beradigan resurslar, maslahatchilar, hamda jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlari yaratiladi.

Muvaffaqiyatli tadbirkorlar ish o'rinlari yaratishi, soliq to'lashi, innovatsiyalarni joriy etishi va barqaror iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tadbirkorlar tomonidan kuchaygan raqobat mavjud firmalarni yanada raqobatbardosh bo'lishga undaydi. Tadbirkorlar yangi ish o'rinlari imkoniyatlarini taqdim etadilar. O'zbekistonning ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun ajratgan mablag'lari va strategiyalari, ayollarga tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishish uchun turli imtiyozlar va resurslarni taqdim etadi. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan tashabbuslar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xususiy sektorning qo'llab-quvvatlashi ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilishni ko'zda tutadi. Bu, o'z navbatida, O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasini va barqaror rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. SCORE Entrepreneurs Mentoring⁵² va WEConnect International⁵³ kabi dasturlar ayollar tadbirkorlarga soha yetakchilari va tengdoshlari bilan aloqa o'rnatishga yordam berish uchun maxsus ishlab chiqilgan murabbiylik imkoniyatlari va tarmoq platformalarini taklif etadi.

Ayol tadbirkorlarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, mentorlik dasturlari va tarmoq tadbirlari orqali tadbirkor ayollar va muvaffaqiyatli biznes yetakchilari o'rtasidagi aloqalarni osonlashtirish, qolaversa, ushbu dasturlar tadbirkorlik faoliyatining turli bosqichlarini qamrab olishi kerak, boshlang'ich maslahatlardan biznesni kengaytirish darajasigacha davr nazarda tutilgan. Ayollar uchun ishbilarmonlikni rivojlantirishga yordam beradigan infratuzilma yaratish, masalan, co-working joylari, inkubatorlar va biznes markazlar tashkil etish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

⁵¹ Women entrepreneurs in Uzbekistan: Challenges and opportunities

<https://www.undp.org/uzbekistan/publications/women-entrepreneurs-uzbekistan-challenges-and-opportunities>

⁵² SCORE can help you start, grow or successfully exit a business. Small business owners who receive three or more hours of mentoring report higher revenues and increased growth. <https://www.score.org/>

⁵³ WEConnect International helps drive money into the hands of women business owners by enabling them to compete in the global marketplace. <https://weconnectinternational.org/>





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 10 Effective Strategies to Empower Women Entrepreneurs Now
<https://www.winssolutions.org/10-effective-strategies-to-empower-women-entrepreneurs-now/>
2. EBRD supports women's entrepreneurship in Uzbekistan
<https://www.ebrd.com/news/2024/ebrd-supports-womens-entrepreneurship-in-uzbekistan.html>
3. 2024 йилда Ўзбекистон хотин-қизлари учун қандай имконият ва имтиёзлар тақдим этилади? <https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-ozbekiston-xotin-qizlari-uchun-qanday-imkoniyat-va-imtiyozlar-taqdim-etiladi> 552726
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Мутахассисларни хорижда тайёрлаш ва ватандошлар билан мулоқот қилиш бўйича «Эл-юрт умиди» жамғармаси <https://gov.uz/uz/advice/65/document/2302>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori
https://static.norma.uz/doc/doc_11/122.pdf
6. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/hotin-qizlarning_tadbirkorligi_uchun_-_100_mln_aqsh_dollari_miqdorda_imtiezli_kredit
7. 74 mingdan ziyod ajratilgan kreditlar <https://uz24.uz/uz/articles/ayollar-7-4>
8. Women entrepreneurs in Uzbekistan: Challenges and opportunities
<https://www.undp.org/uzbekistan/publications/women-entrepreneurs-uzbekistan-challenges-and-opportunities>
9. SCORE can help you start, grow or successfully exit a business. Small business owners who receive three or more hours of mentoring report higher revenues and increased growth. <https://www.score.org/>
10. WEConnect International helps drive money into the hands of women business owners by enabling them to compete in the global marketplace.
<https://weconnectinternational.org/>